



PAPER

XX ASR BOSHLARI SHE'RIYATIDA TAKRORLAR VA ULARNING QOLLANISH SABABLARI

Sherzod Xo'jamberdiev¹, *

¹Qo'qon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

* sherzod879@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada XX asr boshlaridagi (Jadid adabiyoti davri) o'zbek she'riy matnlarida takror (anafora, epifora, leksik takror va boshqalar) san'atining qo'llanilishi, ularning uslubiy xususiyatlari va badiiy funksiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Fitrat, Cho'lpon, Avloniy kabi jadid shoirlarining asarlari olingan. Takrorlarning nafaqat an'anaviy radif san'ati bilan bog'liqligi, balki ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifodalashdagi yangicha ahamiyati ko'rsatilgan. Maqsad – ushbu davr she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda takrorlarning rolini ochib berish.

Key words:

XX asr boshlari adabiyoti, o'zbek she'riyati, jadid adabiyoti, badiiy takror, anafora, epifora, radif, uslubiyat, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik.

Kirish

Har bir millatga mansub bo'lgan she'riyatda takrorning o'rnini alohida. Tovush, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap singari grammatik unsurlarning takrorlash orqali shoir o'zining badiiy niyatini o'quvchiga zudtar yetkazishga erishadi. Shu jihatdan fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik takrorlarning alohida orni bor. Zero "Poeziyada so'zning mustaqilligi ortadi, bu xususiyat ayniqsa so'z va tovush takrori priyomlari,

radif, refren (naqorat) va qofiyada aniqroq namoyon bo'ladi".

Takrorning she'riyatdagi mavqeyi beqiyos bo'ladi, takrorning har qanday turi o'zida sher muallifining ma'lum bir maqsadini mujassamlashtiradi. Ammo noo'rin qo'llangan har qanday takror shoir mahorati va she'rning badiiylik maqomiga putur yetkazishi tayin. Mumtoz poetikada, masalan, birgina qofiyaning takror qo'llanishi she'r uchun qusur hisoblangani shundan.

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Shayx Sa'diy "Ey, sorbon..." g'azalida "o" assonansini, E.Vohidov bir to'rtligida "q" allitratsiyasini hosil qilib, fonetik takrorning go'zal namunalarini yaratgan bo'lsalar, Alisher Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devonidagi 9 baytli fotiha g'azal (A.Rustamiy) "Ashraqt..."da "may" va "jom" so'zlarini to'qqiz martadan ishlatgan. Yoki Mohlaroyim Nodira "Firoqnoma"sida "Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun, Jondan ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun" baytini o'n o'rinda, Muqimiy "O'zum har joydaman, ro'nglum sandadur" misrasini yetti o'rinda qaytarib, she'rdan parallelizm hosil qilgan va ma'shuqa vasfi hamda o'z kechinmalarining lirik bayonining xalqona go'zal namunasini yuzaga keltira olgan. Mazkur fonetik, leksik, sintaktik takror o'z vazifalarini shu qadar aniqlik hamda ta'sirchanlik bilan ado etganki, bulardan she'rning umumg'oyasi tez ayon bo'lib, she'rlarning ritmik xususiyatlari oxorli tus olgan va ohangdorlik maksimal darajada namoyon bo'lgan. "Ey sorbon"dagi "o" assonansi ichki nido(oh, ux, o)ni to'kis namoyon qilsa. "q" takrori "qiz", "qosh", "qaro", "qalam", "qayrilma" singari timsollarga shu qadar fayz beradiki, lirik qahramon tomonidan manzardagi ma'shuqaga yana boshqacha ta'rif berishga also hojat qolmaydi. Yoxud Navoiydagi "may" hamda "jom" timsoli tagma'nosi bilan ilohiylik, so'fiyonalik aspektida butun bir g'azalning leytmotivini shakllantiradi, devonlardagi keyingi g'azallarining mundarijasini belgilab beradi. Nodira tarje'bandidagi takror uning Amiriy firoqidagi ruhiy kechinmalarini to'kis namoyon qilsa, Muqimiy g'azalidagi qaytariq lirik qahramonning ma'shuqa zulmi oldida ilosizlik holatini takror orqali yuzaga kelgan tajohuli orif san'ati vositasida yuzaga chiqaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jadidlar XX asr boshlari o'zbek she'riyatiga da'vatkorva shiddatli ruhni olib kirdilar. Ana shu da'vatkorlik, ana shu shiddat davr poeziyasida takrorlarga qayta-qayta murojaat etishga olib keldi va bular orqali jadid shoirlar muayyan she'rning badiiy qurilishi (kompozitsiyasi)ni bir qadar o'zgacha bo'lishiga, to'g'rirog'i, yangilashga va ijtimoiy sharoitga moslashga erishdilar. Natijada, she'rlardagi musiqiylik, ohang va mazmun o'quvchi va tinglovchi shuuriga tez va to'liq singishiga olib

keldi. Cho'lponning "Xalq" she'rida leksik va morfologik takror satr boshida, o'rtasida, oxirida kelib, anaforik, inforik va epiforik qaytariqni hosil qilgan. Takrorning bir necha turining birgalikda kelishi, she'rga musiqiylikning baland pardadagi ko'rinishini va o'ziga xos bo'lgan ohangdorlikni yuzaga keltirgan.

Avloniyning ushbu oltiligida ham fonetik, morfologik va leksik takrorlar birgalikda kelgan va she'rning umumxulosasi, musiqiyliigi hamda ritmik intonatsiyasi yuqori darajada ortgan. Natijada shoirning poetik niyati – millat kishilarini ilm olishga da'vat etish (jadidlarning asosiy tilaklaridan biri millatni o'qimishli, diniy va dunyoviy ilmlarni egallab, mamlakatni rivojlangan mintaqalar qatoriga olib chiqishdan iborat bo'lganligidan ana shunday badiiy yaratilqlar yuzaga kelgan. – Sh.X.) niyati to'la ro'yobga chiqqan:

So'yla, ey sabo, millata salom,
Bo'lmasun deram, hech bizda bir avom.
Men, g'ulomam, Hijron, ey sabo,
Ilm olan yetar, azizim, hap safolara,
Boq ziyolara, hamsoyalara,
Ilm ila uchar, azizim, boq samolara.

Misra va band takrori boshqa shoirlarga nisbatan Hamza Hakimzoda Niyoziy she'rlarida, ayniqsa, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasida ko'p uchraydi. Bizningcha, shoirning mazkur to'plamida qaytariqlarning bu qadar ko'pligining sababini to'plamga kirgan milliy she'rlarning xalqning ko'ptakrorli qo'shiqlar ohangi yo'nalishida bitilganligidan va she'r markaziga qo'yilgan da'vatkor niyatni bir emas bir necha bor eslatish zaruriyatidan izlash lozim. Masalan, shoir "Dardiga darmon istamas" she'rining xalqning "Do'st mavlon-ey" qo'shig'i ohanggida ekanini eslatib, qo'shiqdan besh misra namuna beradi:

Men bu yonga kelmas erdim,
Yora, kelturding mani-yo!
O'tga solsa, kuymas erdim,
Yora, kuydurding mani-yo!
Do'st mavlon-ey, ko'nglum, olloh, sandadur.

Xalq qo'shig'idan olingan parchadan ham ko'rinib turibdiki, unda so'z takrori ham, misra takrori ham mavjud (misra takrori qo'shiqning kursivga olingan misrasi). Agar shoirning "Milliy

ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga nazar tashlansa, takrorning barch turi muayyan maqsad vajhidan oldingi rejaga olib chiqilganligini kuzatish mumkin. Shunday ekan, Hamza she'riyatidagi misra va band takrorlarini ko'zdan kechirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1. Bir misra takrori. Bir misra takrori shoirning "Dardiga darmon istamas" she'rida keladi. She'rning dastlabki ikki misrasi a-a tarzda qofiyalangan. Qolgan 8 ta uchlik va oxirgi beshlikning qofiyalari g'azalning matla'dan keyingi baytlari qofiyasida. Bir so'z bilan aytganda, misra takrori g'azalning har baytidan so'ng kelgan. G'azal va takror ramalda. G'azal shakli bandlardan ajratib olinganida ramali musammani mahzuf bahriga muvofiq keladi. Afoyli: foilotun / foilotun / foilotun / foilun. Taqte'si: - V - - | - V - - | - V - - | - V - .

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas.

Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.
[29-30]

Banlardagi uchinchi misra she'rda jami bo'lib 9 marta takrorlanadi va g'azalning har bir baytidagi mazmunni yorqinlashtirishga sabab bo'lgan. G'azal shaklining 9 baytida takror misra mavjud emas. Buning sababini so'ngi baytdan oldingi bozgashtda shoir murojaat ruhidan ko'ra, nadomatni oldingi rejaga olib chiqqanidan bo'lsa kerak:

Bu na vahshat, na jaholat, er qizu, piru javon
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas.
Ey Nihon, bing xayf, ey insoniyat, islomiyat,
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

[30]

2. Ikki misra takrori. Milliy she'rlarda ikki misra takrori yigirmadan ziyod she'rida uchraydi. Bandlararo ikki misra takrorini yana xalq qo'shiqlarining ko'pida ikki misraning nisbatan ko'p qaytarilishi hamda mumtoz she'riyatda istifoda qilingan tarje'band janridagi she'rlarning shoir ijodiga ta'siri bilan izohlash mumkin. SHoir ikki misrani bandlararo takror-takror ishlatishida muhim bir maqsad, alohida ta'kid turganini to'g'ri tushunish zarur. Davr uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarga munosabat, ayniqsa, xalqning bilimsizligidan kuyinish, turli xil bid'atlarga mukkasidan ketganligidan ozurda

bo'lish, shu tufayli ilm-ma'rifat, erk, o'zligini tanish, millatni uyqudan uyg'otishga da'vat etish zaruriyati takror misralar va ular orasida qaytariq so'zlarlarni ko'p va xo'b ishlatilishiga sabab bo'lgan. Hamza bir she'rida millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli foje' ahvolga tushgan Turkistonni yig'lashga da'vat etadi: sen shunday yig'laginki, hatto "ruhsiz tanlar tebransin", seni shunday ahvolga solgan, o'zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg'onsin!

Darig' tutmang ilm uchun ketsa molu jon,
O'quv farzligi ming yo'l Qur'onda farmon,
Ma'rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.
Yig'la, yig'la, Turkiston, yig'la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig'la, Turkiston.[10]

Boshqa bir she'rida ("Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston") ham to'rt misrali bandlardan so'ng ikki misra takrorini keltiradi:

Esiz, esiz Turkiston, qani avvalgi xoli,
Olamga ziyo bergan ulxurshidi iqboli,
Abri g'aflat qurshadi, tun bo'ldi istiqboli,
Xo'r bo'lsa millatimiz, tutmasmukin uvoli.
Zulmat toshi yog'ilsa-da, ko'zi ochulmaz
Ruhsiz tandur, hanjar ursa, qoni so'chulmaz. [18]

Milliy she'rlarning yana birida ("Tor-u mor etting") ikki misra takrori g'azal shaklidagi 14 baytli she'rning dastlabki va oxirgi bayti bo'lib kelgan.:

Oh, millat, safohat, tor-u mor etding,
Voh, g'aflat, jaholat, xor-u zor etding. [19]

3. Uch misra takrori. Uch misra takrori majmuadagi she'rlarda nisbatan kam uchraydi. Kuzatishimizcha, uch misra takrori "Milliy she'rlar" majmuasida ikki o'rinda keladi, xolos. SHoir bu she'rni boshlashdan avval ilova qilgan xalq qo'shig'ida ham uch misra takrori mavjud va parchasida kelgan "Nimamish, nimamish?" misrasini aynan ishlatilgan:

Ey mardumi Farg'onalar,
Bu sho'rish-u afsonalar,
Xo'p bag'ringizni ezdimu
Xassiz qadalgan xoralar.
Nimamish, nimamish?
Turkistonda qora kun emish,
Bori jahlning zarbimish! [69]

4. 4 misra takrori. "Majmua"da va undan keyin bitilgan she'rlarida ("Majmua" chop

etilgandan so'ng yozilgan she'rlari, xususan, sho'ro mafkurasiga aldanib bitgan "Hoy,hoy, otamiz" kabi deklomativ she'rlarida) to'rt misra takrori xuddi xalq qo'shiqlariga to'rt misraning naqorat tarzida takrorlanishi xos bo'lgani kabi anchagina uchraydi.

Emdi katta-kichik demangizlar,
O'qusun barobar o'g'il, qizlar.
La'nat toshin otmasinlar xor o'lgach -
Qabrimizga, o'lub ketsak bizlar.
Keling, g'aflatdan keching,
Tashlang bid'at ishlarini.
Birlashingiz Turkiston,
Yashasin millat yoshlarimiz.[26]

Yoki:

Qalpoq kiygan qahramonlar,
Ey gavdali qoplonlar!
Bosgan izidan qaytmasdur
Yo'lbarlar, arslonlar. [172]

5. 5 va 6 misra takrori. Besh va olti misra takrori shoir ijodida faqat ikki she'rda uchraydi, xolos. Bu ikki she'r "Atir gul" to'plamiga kiritilgan. Hamzaning o'zi "ashula" deb eskartish bergan "Hoy, ishchilar" she'ri marsh janrida yozilgan bo'lib, unda "ishchilar" umumlashma obrazi Turkiston hududida istiqomat qiluvchi mehnatkash xalqni ko'rsatadi. Bu she'rga siyosiy tus berishdan ko'ra, uning tagma'nosiga e'tibor qaratgan durustroq. Nazarimizda, Hamza ishchilar timsolida Turkiston o'lkasida istiqomat qiladigan mehnat ahlini nazarda tutgan ko'rinadi. Besh misrali takror bilan boshlangan o'n besh bandli mazkur she'rda har to'rt misrali banddan so'ng besh misrali takror keladi:

Tokaylar biz yuramiz
Qo'l-u oyoq bog'li?!
Bir parcha qolgan nonga
Yurak, bag'ir dog'li?!
Hoy, ishchilar,
Ezilgan mehnatchilar!
Bitsin zolim boylar!
Erkingni qo'ldan berma,
Yasha xizmatchilar! [147-149]

6 misra takror kelgan she'ri "Shundoq qo'lurmi?!" deb nomlangan. Mazkur she'r ham "Atir gul" to'plamiga kirgan. Yurtda ro'y berayotgan siyosiy o'zgarishlar Hamzani qoniqtirmagan. Zero siyosiy to'ntarishlar, yurtda

Sho'ro tuzumining o'rnatilishi mehnatkash xalqqa ro'shnolik bermaganini tushunib yetgan zukko shoir istibdod hamon davom etayotganligini his qilgan va ana shu qaytariqli she'rni bitgan. Bunga ham shoir "ashula" deb eskartish bergan. O'n bir bandli bu she'rda ushbu 6 misrali band 6 marta takrorlanadi:

Shundoq qo'lurmu, qolurmu?!
Hamon vahshatda qolurmu?!
Nafsi shahvat qurbonlari,
Sizga ishonib bo'lurmu?
Turkistonning istiqboli
Siz xoinlarga qolurmu?! [117-118]

Xulosa

Xullas, Hamza Hakimzoda Niyoziyning ana shunday qaytariqli she'rlarning ta'lif qilishiga sabab bo'lgan omillarni to'g'ri tafakkur etmoq lozim. Dastlabki sababni misralar takroriga asoslangan she'rlarning yozilishiga shoirning xalq qo'shiqlariva ulardagi takrorlardan ulgi olgani bilan izohlash kerak. Ikkinchidan esa, bularni ko'pchilik tomonidan qo'shiq qilib aytilishiga umid bog'lab yozgani bilan asoslash lozim. Uchinchidan esa, ayni shu takrorlar xalqning idrok ko'zini ochishga safarbar etishni maqsad qilib yozilgan ko'rinadi. Nazarimizda, takrorlarning bu tariqa qo'llash Hamzaning, nafaq Hamza, balki o'sha davr jadid shuarosining tub maqsadlarining oynasi sifatida namoyon bo'lgan. Zero takrorlar xuddi quyoshning nurli nayzalarini bir nuqtaga to'plab, yagona nishonga yo'naltirilganidek, o'quvchi va tinglovchining shuuri va erkinlik ko'zini ochishni maqsad qilib istifoda etilgan, deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar

1. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud Axloq. Toshkent: Turkiston nashriyoti. (Ayni asardan olingan she'riy parchalar tahlil uchun foydalanilgan bo'lishi mumkin).
2. Behbudiy, M.X. (1903-1915 yillar oralig'idagi maqolalar va she'rlar to'plami). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'rifat.
3. Fitrat, A. (1922). O'zbek adabiyoti namunalari. Istanbul: Nashriyot nomi noma'lum.

(Keyinchalik Toshkentda qayta nashr etilgan to'plamlar).

4. Cho'lpon (Abdulhamid Sulaymon o'g'li). (1920-1930 yillar oralig'idagi she'riy to'plamlari). Adabiyot nima degani? (Maqolalar to'plami).
5. Karimov, N. (1999). XX asr boshlari o'zbek adabiyoti. Toshkent: O'qituvchi. (Jadid adabiyoti davrini ilmiy o'rganish bo'yicha fundamental manba).
6. Qosimov, U., Dolimov, U. (2006). Jadidchilik: Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Yusupova, SH. (2010). O'zbek she'riyatida badiiy takror muammosi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. (Takror san'ati bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy ish).